

RAQAMLI PROFILAKTIKA VA NARKOJINOYATLARGA QARSHI KURASH (MAHALLA MISOLIDA)

Kenjaev Jasur Omon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Maxsus-kasbiy

fanlar kafedrası professori, s.f.b.f.d., (PhD)

podpolkovnikAslov6699@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada 2025-2026-yillardagi narkovaziyatning kriminologik tahlili, uyushgan jinoiy guruhlar faoliyati va zamonaviy narkotrafik yo'nalishlari o'rganilgan. "Psixotrop_MOI_BOT" raqamli vositasi misolida "Mahalla yettiligi" tizimida jinoyatlarni barvaqt oldini olish metodikasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Mahalla yettiligi, narkolaboratoriya, sintetik narkotiklar, "Psixotrop" boti, kriminologik tahlil, raqamli profilaktika, transchegaraviy jinoyatchilik, "zakladka".

Hozirgi davrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi natijasida dunyo hamjamiyati xavfsizligiga jiddiy xavf solayotgan eng dolzarb transmilliy muammolardan biri — giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan davlat va jamiyat xavfsizligiga bevosita tahdid soluvchi to'rtta strategik yo'nalish, xususan — uyushgan jinoyatchilik, giyohvandlik, kiberjinoyatchilik hamda yashirin iqtisodiyotga qarshi muvofiqlik va ta'sirchan kurashish choralarni ko'rish ustuvor vazifa sifatida belgilangan[1].

So'nggi yillarda respublikamizda narkovaziyatning kriminologik manzarasida jiddiy transformatsiya kuzatilmoqda. Biz bilgan an'anaviy o'simlik dori vositalarining ulushi sezilarli darajada kamayib, ularning o'rnini yuqori texnologik va destruktiv xususiyatga ega bo'lgan sintetik narkotiklar hamda kuchli ta'sir qiluvchi farmatsevtika preparatlari egallamoqda.

O'zbekiston Respublikasi hududida muomalasi cheklangan yoki butunlay taqiqlangan ushbu moddalarning noqonuniy tarqalishi nafaqat jamoat tartibiga, balki millat genofondi, aholi salomatligi va intellektual salohiyatiga nisbatan tizimli jiddiy tahdid sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-73 va PF-207-sonli [1,2]Farmonlari bilan aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik hamda narkojinoyatlardan himoya qilish strategik ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Hozirgi kunda narkojinoyatchilik an'anaviy shakllardan raqamli va transchegaraviy shakllarga o'tishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, mahalla darajasidagi jinoyatlarni barvaqt aniqlash va ularning sabablarini bartaraf etishda "Mahalla yettiligi" zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklatilgan.

Joriy yilning yanvar-fevral oylari davomida o'tkazilgan tezkor tadbirlar narkovaziyatning jiddiylashayotganini butun jamiyatimizga ko'rsatmoqda. Uyushgan jinoiy guruhlar va narkolaboratoriyalar mavjud tahlillariga ko'ra, joriy yilning bor-yo'g'i ikki oyi davomida respublikada narkotiklarni tarqatish bilan shug'ullanuvchi 22 ta uyushgan narkojinoiy guruh faoliyatiga chek qo'yilgan. Ushbu guruhlarning 5 nafar yetakchisi va 84 nafar vositachi a'zolari qo'lga olingan. Alohida xavotirli jihati shundaki, 8 ta yashirin narkolaboratoriya fosh etilgan. Taqqoslash uchun: 2025-yil davomida jami 14 ta laboratoriya aniqlangan bo'lsa, 2026-yilning ilk 2 oyida bu ko'rsatkich yillik hajmning yarmidan oshib ketgan[3].

Bu laboratoriyalarning:

- 3 tasi psixotrop moddalar tayyorlovchi yashirin sexlar;
- 5 tasi sintetik narkotik moddalar ishlab chiqaruvchi laboratoriyalardir.

Jinoyatchilarning ixtisoslashuvi va tarqatish usullari qo'lga olingan narkojinoyatchilarning tarkibi quyidagicha taqsimlangan:

- 41 nafari (eng ko'p qismi) – internet narkodo'konlar orqali sintetik narkotiklarni "zakladka" (tashlab ketish) usulida tarqatgan;
- 20 nafari – psixotrop dori vositalarini tarqatish bilan shug'ullangan;
- 28 nafari – an'anaviy narkotik moddalar savdosi bilan shug'ullangan.

Noqonuniy muomaladan olingan moddalar miqdori Yanvar-fevral oylarida musodara qilingan moddalar hajmi kriminologik prognozlarning yuqoriligini tasdiqlaydi:

41 kg an'anaviy narkotiklar, 100 kg dan ortiq sintetik narkotiklar, 200 mingga yaqin (1 mln dozaga teng) psixotrop dori vositalari va 2 tonnaga yaqin prekursorlar[4].

Respublikamizdagi narkovaziyatni kriminologik jihatdan o'rganish shuni ko'rsatadiki, narkojinoyatchilik bugungi kunda o'zining geografik qamrovi va tarkibiy tuzilishiga ko'ra yanada murakkab va transchegaraviy xarakter kasb etmoqda.

O'tkazilgan tezkor-tahliliy tadbirlar natijasida jinoiy guruhlarining faoliyati asosan urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan va logistik tugun hisoblangan hududlarda to'plangani aniqlandi. Xususan, Toshkent shahri, Namangan, Andijon, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarining jami 40 ta tuman va shaharlarida narkotik vositalarni tarqatishning barqaror kanallari shakllangan. Bu hududlar nafaqat iste'mol bozorining kattaligi, balki tranzit imkoniyatlari bilan ham jinoiy tuzilmalarni o'ziga jalb etmoqda[4]. Bu "mahalla ettiligi"dan ushbu hududlarda hushyorlikni ikki barobar oshirishni talab etadi.

Respublikaga g'ayriqonuniy ravishda olib kirilayotgan moddalarning logistik tahlili uchta asosiy strategik yo'nalishni ko'rsatib berdi:

- ✓ **Janubiy yo'nalish:** Afg'onistondan Surxondaryo viloyati orqali kirib keluvchi an'anaviy narkotik vositalar oqimi;
- ✓ **Sharqiy yo'nalish:** Qirg'iziston Respublikasidan Namangan va Andijon viloyatlari orqali kirib keluvchi psixotrop va sintetik vositalar kontrabandasi;
- ✓ **Shimoliy yo'nalish:** Qozog'iston Respublikasidan Toshkent viloyati orqali kirib keluvchi prekursorlar va sintetik moddalar tarmog'i.

O'rtacha bir jinoiy guruh 3 oydan 10 yilgacha faoliyat ko'rsatib kelgan. Birgina internet narkodo'koni bir yilda o'rtacha 350 kg sintetik modda tarqatish imkoniyatiga ega. Bu esa jamiyat genofondiga yetkazilayotgan ulkan zararning raqamli ko'rinishidir[4].

O'zbekiston Respublikasida narkovaziyatni sog'lomlashtirish va narkojinoyatchilikka qarshi kurashishning strategik yo'nalishlarini belgilovchi 2024–2028-yillarga mo'ljallangan

milliy strategiya doirasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga ilgʻor axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda innovatsion ish uslublarini tatbiq etish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan[5].

Mazkur strategik vazifalar ijrosini taʼminlash hamda sohadagi mavjud funksional boʻshliqlarni bartaraf etish maqsadida, Oʻzbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti professor-oʻqituvchilari tomonidan zamonaviy raqamli yechim - “Psixotrop_MOI_BOT” intellektual tizimi ishlab chiqildi. Mamlakatimiz aholisi va soha xodimlari orasida ommalashgan Telegram messenjeri negizida yaratilgan ushbu raqamli vosita, shubhali dori vositalari va psixotrop moddalarning huquqiy maqomini real vaqt rejimida (online) identifikatsiya qilish imkonini beradi[6].

Bu esa, oʻz navbatida, huquqni qoʻllash amaliyotida tezkorlikni taʼminlash va kriminogen vaziyatni barvaqt jilovlashning samarali mexanizmi boʻlib xizmat qiladi.

Botning texnik va uslubiy imkoniyatlari Bot foydalanuvchiga dori vositasi yoki moddaning huquqiy maqomini soniyalar ichida aniqlash imkonini beradi:

Botga start tugmasini bosgandan soʻng, “Regapen”, “Zardeks”, “Tropikamid” kabi moddalar kiritilganda, tizim ularning VMQ-818 yoki VMQ-878 qarorlariga muvofiqligini koʻrsatadi[6].

Maʼlumotlar bazasida 500 dan ortiq muomalasi taqiqlangan giyohvandlik vositalari, muomalasi cheklangan psixotrop moddalar, muomalasi cheklangan prekursorlar va kuchli taʼsir qiluvchi moddalar roʻyxatlari toʻliq kiritilgan.

“Mahalla yettiligi” uchun amaliy qoʻllanma mahalla profilaktika inspektori va yoshlar yetakchisi quyidagi holatlarda botdan foydalanishi tavsiya etiladi:

- ✓ Yashirin narkolaboratoriya belgilari sezilganda yoki shubhali kimyoviy hidlar chiqqanda, hududdagi moddalarni aniqlashda;
- ✓ Mahalla hududida yashirilgan nomaʼlum paketlar topilganda, ularning turini (sintetik yoki anʼanaviy) taxminiy aniqlashda;
- ✓ Maktab va kollejlarda yoshlarga dori vositalarining xavfini vizual (botdagi □ belgilari orqali) koʻrsatib berishda;

TAKLIF VA TAFSIYALAR

- Narkojinoiy guruhlarining 41 nafari internet orqali faoliyat yuritganini inobatga olib, “Mahalla yettiligi”ning kiber-savodxonligini oshirish va “Psixotrop” boti kabi tizimlarni keng targ‘ib qilish zarur;
- Narkotrafik faol bo‘lgan 40 ta tuman-shahar kesimida alohida “Raqamli profilaktika xaritalari”ni ishlab chiqish;
- Chegara oldi mahallalarida (Surxondaryo, Namangan, Andijon va Toshkent vil.) botdan foydalanish metodikasini bojxona va chegara qo‘shinlari quyi bo‘g‘in xodimlari bilan muvofiqlashtirish.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, joriy yilning 2 oyida aniqlangan 8 ta narkolaboratoriya va 100 kg sintetik moddalar bu muammoning ko‘lami qanchalik kengligini ko‘rsatadi. “Psixotrop_MOI_BOT” tizimi mazkur salbiy tendensiyalarga qarshi kurashishda “Mahalla yettiligi” uchun eng qulay, tezkor va ilmiy asoslangan **“cho‘ntak yordamchisi”** bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi O‘RQ813-I son Qonuni;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta‘sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-sonli Farmoni;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-207-sonli Farmoni;
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2015-yil 12-noyabrdagi 330-sonli “O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirish, olib chiqish hamda tranzit

- qilish tartibini takomillashtirish, shuningdek ularning muomalasi ustidan nazoratni kuchaytirish to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qaroriga o‘zgartishlar kiritish haqida”gi VMQ 878-son Qarori;
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida kuchli ta’sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to‘g‘risida”gi VMQ818-son qarori;
 6. O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti “Psixotrop_MOI_BOT” bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasi;
 7. O‘zbekiston Respublikasida narkojinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha 2026-yil yanvar-fevral oylari statistik hisoboti;
 8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.01.2026 yildagi “Ichki ishlar organlari va boshqa HMQO bilan o‘tkazgan yig‘ilishdagi nutqi”.